YASHIL

IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

GREEN ECONOMY AND DEVELOPMENT

Social, Economic, Technological, Scientific and Popular Science Journal

2026-YIL, OKTYABR / VI MAXSUS SON

SAMARQAND DAVLAT VETERINARIYA MEDITSINASI, CHORVACHILIK VA BIOTEXNOLOGIYALAR UNIVERSITETI

IQTISODIYOT FAKULTETI



ISSN: 2992-8982

https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/



IQTISODIYOT&TARAQQIYOT
Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Bosh muharrir o‘rinbosari:
Karimov Norboy G‘aniyevich

Muharrir:
Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay’ati:
Salimov Oqil Umrzoqovich, O‘zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O‘zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, “Nobel” mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a’zosi, Turkiya – O‘zbekiston do‘stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G‘afforovna, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug‘aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoira Azimovna, iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko‘nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo‘ja o‘g‘li, iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Utayev Uktam Choriyevich, O‘z.Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig‘i o‘rinbosari
Ochilov Farkhod, O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig‘i
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o‘g‘li, texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), katta o‘qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o‘g‘li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o‘g‘li, TDIU katta o‘qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.

Elektron nashr. 307 sahifa.
E’lon qilishga 2026-yil 24-oktyabrda ruxsat etildi.



IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhriddinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Head of Department, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Ochilov Farkhod, Head of DCEC, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow))
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.

Ekspertlar kengashi:
Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po‘latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
G‘afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o‘qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi

Board of Experts:
Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilkhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Khusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Rakhimovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridakhon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher

08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
08.00.02 Makroiqtisodiyot
08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
08.00.04 Qishloq xo‘jaligi iqtisodiyoti
08.00.05 Xizmat ko‘rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
08.00.06 Ekonometrika va statistika
08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
08.00.11 Marketing
08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
08.00.13 Menejment
08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: “Ma’rifat-print-media” MChJ
Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O‘zR Tabiat resurslari vazirligi, O‘zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:
““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali
O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro‘yxatdan o‘tkazilgan.

MUNDARIJA

INNOVATSION IQTISODIYOT SHAROITIDA QISHLOQ XO‘JALIGINI BARQAROR RIVOJLANTIRISH: YUTUQLAR, MUAMMOLAR VA ISTIQBOLLAR 9
Yunusov Xudoynazar Beknazarovich

XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA IJARA MUNOSABATLARI VA INVESTITSION AKTIVLARNI HISOBGA OLISHNI TAKOMILLASHTIRISH 11
Egamberdiyeva Salima Rayimovna

KORXONA MOLIYAVIY BARQARORLIGINI TA‘MINLASH VA RESURSLARIDAN SAMARALI FOYDALANISH FOYDA KO‘RSATKICHLARINI 2029-YILGACHA PROGNOZI 20
Xasanov Baxodir Akramovich, Maxmudov Azamat Normuradovich, Atamurodov Saidmurod Yaxyoyevich

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA MOLIYAVIY HISOBOTNING XALQARO STANDARTLARIGA O‘TISH MASALALARI 23
Kurbanov Ziyat Niyazovich

ОРГАНИЗАЦИЯ НАЛОГОВОГО УЧЕТА И ОПТИМИЗАЦИЯ ЗАТРАТ В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВОЙ ЛОГИСТИКИ 28
Н. Бердимурат, А. Бердимурат

QISHLOQ XO‘JALIGI KORXONALARIDA AUDITNING XALQARO STANDARTLARI ASOSIDA ISHLAB CHIQARISH XARAJATLARI VA BIOLOGIK AKTIVLAR AUDITINI RISKLARGA YO‘NALTIRILGAN HOLDA TASHKIL ETISH 34
Alikulov Abdimo‘min Ismatovich, Ruzieva Elvira Abdulmitovna, Rakhimova Umida Rabbimovna

CHORVACHILIK KORXONALARI VA AGROKLASTERLARDA BIOLOGIK AKTIVLAR HISOBINI BHXS (IAS) 41 “QISHLOQ XO‘JALIGI” STANDARTI ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH 40
Alikulov A.I., Sayfiyev S. S., Karimov I.Sh.

XO‘JALIK YURITUVCHI SUBYEKTLARDA PUL OQIMLARINING IQTISODIY MOHIYATI, ULARNI TASNIFLASH VA BAHOLASHNING ZARURATI 47
Xasanov Baxodir Akramovich, Maxmudov Azamat Normuradovich, Atamurodov Saidmurod Yaxyoyevich

BALIQCHILIK XO‘JALIKLARIDA AYLANMA KAPITALDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI IQTISODIY TAHLIL QILISH VA BARQAROR RIVOJLANISHNI BOSHQARISH MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI 50
Fayziyev Oybek Raximovich

CHORVACHILIK BIOLOGIK AKTIVLARI HISOBINI XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA TASHKIL ETISH MUAMMOLARI VA ULARNING YECHIMLARI 57
Menglikulov Baxtiyor Yusupovich

RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA AGROSERVISNI INNOVATSION RIVOJLANTIRISHNING IQTISODIY MEXANIZMLARI 63
Mirzayev Kulmamat Djanzakovich

QISHLOQ AHOLISI DAROMADLARINI KO‘PAYTIRISHNING INNOVATSION YO‘NALISHLARI 68
Amaniyazov Rinat Bayniyazovich

MINTAQAVIY BOG‘DORCHILIKDA RESURS VA XARAJATLAR TARKIBINI OPTIMALLASHTIRISH (Samarqand viloyati tumanlari misolida) 74
Akbarov Husan O‘zbekxonovich

SANOAT SOHASIDA INVESTITSION RESURSLARDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH ISTIQBOLLARI 79
Azimova Hulkar Egamberdiyevna

QISHLOQ XO‘JALIGI ISHLAB CHIQARISHINING TEXNOLOGIK VA BIOLOGIK XUSUSIYATLARI HAMDA ULARNING XARAJATLAR HISOBI VA KALKULYATSIYA METODOLOGIYASIGA TA’SIRI 86
Mardonov Mamed Shavkatovich

BARQAROR IQTISODIY O‘SISHNI TA’MINLASHDA INVESTITSIYALAR HAMDA JOZIBADOR INVESTITSION MUHITNING O‘RNI VA AHAMIYATI 89
Raxmatov Jonibek Ismoil o‘g‘li

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

SAMARQAND VILOYATIDA MAISHIY XIZMATLARNI RIVOJANTIRISH ASOSIDA KAMBAG‘ALLIKNI QISQARTIRISHGA OID TAVSIYALAR 96
Navruzbek Azimjonovich Rajabov

MAMLAKATIMIZDA AHOLINI KAMBAG‘ALLIK DARAJASINING TAHLILI VA KAMBAG‘ALLIKNI KAMAYTIRISHNING IQTISODIY IMKONIYATLARI 99
Saparov Murod Irgashovich

O‘ZBEKISTONDA SAVDO VA ELEKTRON SAVDO XIZMATLARI TARAQQIYOTINING ILMIY ASOSLARI VA RAQAMLI IQTISODIYOTGA MOS RIVOJLANISH XUSUSIYATLARI 102
Jurakulov Shoxrux Baxtiyorovich

O‘ZBEKISTONDA CHORVACHILIK TARMOG‘INING IQTISODIY SAMARADORLIGINI OSHIRISH OMILLARI VA RIVOJLANISH TENDENSIYALARI 108
Eshanqulov Sirojiddin Xakimovich

INNOVATSION AGROTEXNIK TADBIRLAR (XOMTOK VA BARG SONINI BOSHQARISH) ASOSIDA MAYIZBOP UZUMCHILIKDA BARQAROR HOSILDORLIKNI TA’MINLASH YO‘LLARI 114
Abdurasulov Otabek Abdurasul o‘g‘li, Mahmudova Fotima Erkin qizi

ASALARICHILIK XO‘JALIKLARIDA AKTIVLAR HISOBINI XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH 117
Ishturdiev Hasan Abdugapparovich

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ УЧЕТА ЗАТРАТ БИОЛОГИЧЕСКОВ АКТИВОВ В СЕЛЬСКОМ ХОЗЯЙСТВЕ НА ОСНОВЕ МЕЖДУНАРОДНЫХ СТАНДАРТОВ ФИНАНСОВОЙ ОТЧЕТНОСТИ 121
Изатиллаева Комила, Эшмурадов Улугбек Ташмуратович

AGROKLASTERLARDA TOVAR-MODDIY QIYMATLIKLAR HISOBINI TAKOMILLASHTIRISHNING USLUBIY YO‘NALISHLARI 128
Raximova Umida Rabbimovna, Vahobov Diyor Husan o‘g‘li, Mardonova Parizoda Ziyodullayevna, Djuraqulov Sherali Abdullayevich

O‘ZBEKISTON KIMYO SANOATI KORXONALARI DIVERSIFIKATSIYALASHUVI ASOSLARI 133
Razikov Otabek Rustamovich

QISHLOQ XO‘JALIGI KORXONALARIDA TOVAR-MODDIY ZAHIRALARNING IQTISODIY MOHIYATI VA ULARNI HISOBGA OLISHNI TAKOMILLASHTIRISH 137
Raximova Umida Rabbimovna, Qodirberganova Tabassum Ro‘zimboy qizi, Xazratqulov Firdavs Firuzovich, Qadamboyev Mirxandbek Xamidjon o‘g‘li

LIMON MEVASINING SHIFOBAXSH XUSUSIYATLARI HAQIDA BA’ZI TUZUKLAR 140
N.Mamatkulov, Ochilova Marg‘uba

KICHIK BIZNESNI EKSPORTGA OLIB CHIQISH: AMALIY STRATEGIYALAR VA HAYOTIY TAJRIBALAR 143
R. T. Qudratov, A. X. Sodiqov

FERMER XO‘JALIKLARIDA SOTISH JARAYONLARI HISOBI VA AUDITNI TAKOMILLASHTIRISH 147
Ruziyeva Dilafruz Faxridinovna, Abdunazarova Sevinch

RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA INNOVATSION TURISTIK XIZMATLARNI RIVOJLANTIRISHGA TA’SIR ETUVCHI OMILLAR 154
Tleumuratov Baxadir Genjemuratovich

XIZMAT KO‘RSATISH KORXONALARIDA BIZNES-JARAYONLARNI AVTOMATLASHTIRISH VA OPTIMALLASHTIRISHNING IQTISODIY MEXANIZMLARI 159
Berdiyev Nazirjon Abduvoseyevich

G‘ALLA YETISHTIRISHDA ISHLAB CHIQARISH XARAJATLARI HISOBI VA MAHSULOT TANNARXINI HISOBLASHNING HOZIRGI HOLATI 165
Sh.X. Yuldashev, S.S. Nematilloyev

RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA XIZMAT KO‘RSATISH KORXONALARIDA IQTISODIY SAMARADORLIKNI OSHIRISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH 171
Berdiyev Nazirjon Abduvoseyevich

YASHIL IQTISODIYOT SHAROTIDA OZBEKISTONDA ISHSIZLARGA YANGI ISH ORINLARINI YARATISH 177
Nazarova M.Sh., Berdikulov Ravshan, Nematullaev Ozodbek, Xasanov Rizo

ПОВЫШЕНИЕ КОНКУРЕНТОСПОСОБНОСТИ РЕГИОНОВ УЗБЕКИСТАНА НА ОСНОВЕ ИНВЕСТИЦИЙ, ИННОВАЦИЙ И ЦИФРОВОЙ ТРАНСФОРМАЦИИ 181
Шадиева Гулнора Мардиевна

KAMBAG‘ALLIK DARAJASINI QISQARISHIGA XIZMAT KO‘RSATISH SOHASI TA’SIRINI TASHKILIY-IQTISODIY MEXANIZMLARI 185
Saparov Murod Irgashovich

SUT CHORVACHILIGIDA MAHSULOT TANNARXINI OMILLI VA MARJINAL TAHLIL QILISH USLUBIYATINI TAKOMILLASHTIRISH 189
Abduganieva Dildora Bobir qizi, Alikulov Abdimo‘min Ismatovich

ASALARICHILIK XO‘JALIKLARIDA TA’MINOT JARAYONI HISOBINING HOZIRGI HOLATI VA UNI TAKOMILLASHTIRISH YO‘NALISHLARI 195
Ishturdiev Xasan Abdigapparovich

RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA XIZMATLAR SOHASINI RIVOJLANTIRISH YO‘LLARI 200
Ochilova Mohigul Toshtemir qizi

ПИЩЕВЫЕ ОТХОДЫ И СТРАТЕГИИ БОРЬБЫ С НИМИ 214
Казакова Зулайхо Салахиддиновна, Хотамова Юлдуз Юнусжоновна, Авалбаева Самира Кахрамон кизи, Ахророва Малохат Аброр кизи

AGROKLASTERLARDA TOVAR-MODDIY QIYMATLIKLAR BO‘YICHA ICHKI NAZORAT VA AUDITNI TAKOMILLASHTIRISH 221
Raximova Umida Rabbimovna, Jumaniyazova Munisa Jamoliddin qizi, Xoliqberdiyev Firdavs Ilhamovich, Nafasov Og‘abek Bobirjon o‘g‘li

KORXONALARDA TOVAR-MODDIY ZAXIRALARI TANNARXINI IAS 2 STANDARTI BO‘YICHA SHAKLLANTIRISH VA UNING AUDITORLIK TAHLILI 225
To‘xtayev Zafar Mamatqulovich, Omonov Sindorbek G‘ayrat o‘g‘li, Abdusalomov Jasurbek Abdukarim o‘g‘li

XO‘JALIK YURITUVCHI SUBYEKTLARDA ASOSIY VOSITALARNI TAN OLISH, ULARNI BUXGALTERIYA HISOBIDA BAHOLASH VA AMORTIZATSIYA USULLARI: XALQARO VA O‘ZBEKISTON YONDASHUVLARINING QIYOSIY TAHLILI 229
Azzamova Dinora Xolmumin qizi

O‘ZBEKISTONDA BUXGALTERIYA HISOBINI XALQARO STANDARTLARGA UYG‘UNLASHTIRISH SHAROITIDA XARAJATLAR HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH 232
X. Axmedov, S. Karimov, M. Raxmonova, G. B. Narziyeva

СОВРЕМЕННЫЕ НАПРАВЛЕНИЯ НАУЧНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ ЦИФРОВОЙ ТРАНСФОРМАЦИИ БИЗНЕСА 237
Р. С. Макашева, А. Бердимурат, Азизова София, Акимова Милан

ИНВЕСТИЦИИ, ИННОВАЦИИ И РЕБРЕНДИНГ КАК ФАКТОРЫ КОНКУРЕНТОСПОСОБНОСТИ РЕГИОНОВ УЗБЕКИСТАНА 242
Шадиева Гулнора Мардиевна

SAMARQAND VILOYATI MEVA-SABZAVOTCHILIK TARMOG‘IDA KLASTER TIZIMINING IQTISODIY SAMARADORLIGINI BAHOLASH VA UNI OSHIRISH YO‘LLARI 246
Roziyeva Gulhayo Choriyevna

PAXTA YETISHTIRISHDA INNOVATSION AGROTEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISHNING IQTISODIY MOHIYATI 254
Z.N.Ishniyazov

O‘ZBEKISTON QISHLOQ XO‘JALIGI KORXONALARIDA XARAJATLAR HISOBINI XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH 257
G. B. Narziyeva, Baxriddinov Samandar, Jumayev Azamat

O‘ZBEKISTONNING JAHON SAVDO TASHKILOTIGA A’ZO BO‘LISHI VA MILLIY IQTISODIY ISLOHOTLAR: IMKONIYATLAR, XATARLAR VA STRATEGIK MOSLASHUV 262
Kazakova Zulayho Salaxiddinovna, Yaxshiliqov Jo‘raqul Rahmiddin o‘g‘li, Napasov Aslonbek Asqar o‘g‘li

QISHLOQ XO‘JALIGIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISHNING IQTISODIY SAMARADORLIGI VA BARQAROR RIVOJLANISHGA TA’SIRI 267
Ruziyeva Dilafruz Faxridinovna, Tursunov Samad Dilshod o‘g‘li, Tog‘aymurodov Sorbon Suhrob o‘g‘li, Eshqulov Murodjon O‘tamurod o‘g‘li

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

FAOL TADBIRKORLIKNI DAVLAT TOMONIDAN QO‘LLAB-QUVVATLASH MEXANIZMINING ASOSLARI 274
Baxtiyorov Mexro‘zxon Baxtiyorovich, Salamov Ibroxim

УЧЕТ И ОПТИМИЗАЦИЯ ТРАНСПОРТНЫХ ЗАТРАТ В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВОЙ ЛОГИСТИКИ: СОВРЕМЕННЫЕ ПРОБЛЕМЫ И НАПРАВЛЕНИЯ РАЗВИТИЯ 279
Бердимурат Н., Сапарбай А., Қырықбай Қ.

СИСТЕМА НАЛОГОВ И СБОРОВ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН: СОВРЕМЕННОЕ СОСТОЯНИЕ, ИНСТИТУЦИОНАЛЬНЫЕ РЕФОРМЫ И ВЕКТОР РАЗВИТИЯ 286
Бахтиярова Севинчой Абдиязовна, Султонбоева Севинчой Азизбековна

AKVAKULTURA: TABIIY-IQLIM SHAROITLAR, BALIQ YETISHTIRISH USULLARI VA OZIQ-OVQAT XAVFSIZLIGI 289
Urdushev Xamrakul, Rabbimova Parvina Askar qizi

БИОЛОГИЧЕСКИЕ АКТИВЫ КАК СПЕЦИФИЧЕСКИЙ ОБЪЕКТ БУХГАЛТЕРСКОГО УЧЁТА 293
Кураленко Алина, Эшмурадов У.

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ СИСТЕМЫ БУХГАЛТЕРСКОГО УЧЕТА В МАЛОМ И СРЕДНЕМ БИЗНЕСЕ В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВОЙ ТРАНСФОРМАЦИИ 298
Туякбаева Жазира, Таженова Хурлиман, Ш. Юлдашев

QISHLOQ XO‘JALIGI KORXONALARIDA JAVOBGARLIK MARKAZLARI SEGMENTAR HISOBOTLARINING XUSUSIYATLARI 301
Alikulov G‘olib Abdimuminovich

CHORVACHILIK BIOLOGIK AKTIVLARI HISOBINI XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA TASHKIL ETISH MUAMMOLARI VA ULARNING YECHIMLARI

Menglikulov Baxtiyor Yusupovich
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti “Audit” kafedrasi professori, i.f.d.

Annotatsiya: Maqolada chorvachilik biologic aktivlari hisobini xalqaro moliyaviy hisobot standartlari asosida tashkil etishning nazariy va amaliy muammolari tadqiq etilgan. Biologik aktivlarni tan olish, tasniflash va baholashda 41-son BHXS “Qishloq xo‘jaligi” (IAS 41) hamda 13-son “Haqqoniy qiymatni baholash” nomli MHXS (IFRS 13) talablarini qo‘llash masalalariga alohida e’tibor qaratilgan. Sotish yoki so‘yish uchun yetishtiriladigan hayvonlar hamda qishloq xo‘jaligi mahsulotini olish maqsadida uzoq muddat foydalaniladigan hayvonlarni hisobga olish xususiyatlari tahlil qilingan. O‘zbekiston Respublikasining rasmiy statistik ma’lumotlari asosida chorvachilik subyektlarida hisob axborotlarini takomillashtirish zarurligi asoslangan. Biologik aktivlarni iqtisodiy maqsadiga ko‘ra tasniflash, yoshi, zoti, mahsuldorligi va foydalanish yo‘nalishi bo‘yicha analitik hisobni tashkil etish, shuningdek haqqoniy qiymatni aniqlash uchun axborot bazasini shakllantirishga asoslangan takomillashtirilgan hisob modeli taklif etilgan. Biologik aktivlar hisobining sifatini oshirish bir vaqtning o‘zida birlamchi hujjatlar, baholash jarayonlari, ichki nazorat va moliyaviy hisobotdagi ochib berishlarni takomillashtirishni talab qilishi asoslangan.

Kalit so‘zlar: chorvachilik, buxgalteriya hisobi, biologik aktivlar, BHXS (IAS) 41, MHXS (IFRS) 13, haqqoniy qiymat, qishloq xo‘jaligi mahsuloti, baholash, moliyaviy hisobot.

Abstract: The article examines theoretical and practical problems of organizing accounting in livestock enterprises in accordance with International Financial Reporting Standards. Particular attention is paid to the application of IAS 41 “Agriculture” and IFRS 13 “Fair Value Measurement” in the recognition, classification and measurement of biological assets. The study analyzes the accounting treatment of animals used for agricultural production as well as animals raised for sale or slaughter. Based on official statistical data of Uzbekistan, the article identifies the need to improve the accounting information system of livestock enterprises. An improved organizational and methodological accounting model is proposed, including classification of biological assets according to their economic purpose, analytical accounting by age, breed, productivity and intended use, and development of an information base for determining fair value. The study substantiates that improving the quality of biological asset accounting requires simultaneous enhancement of primary documentation, valuation procedures, internal control and financial statement disclosures.

Key words: livestock farming, accounting, biological assets, IAS 41, IFRS 13, fair value, agricultural produce, valuation, financial reporting, Uzbekistan.

Аннотация: В статье исследованы теоретические и практические проблемы организации бухгалтерского учета в животноводческих предприятиях на основе международных стандартов финансовой отчетности. Особое внимание уделено применению МСФО (IAS) 41 «Сельское хозяйство» и МСФО (IFRS) 13 «Оценка справедливой стоимости» при признании, классификации и оценке биологических активов. Проанализированы особенности учета животных, предназначенных для производства сельскохозяйственной продукции, а также животных, выращиваемых для продажи или убоя. На основе анализа официальных статистических данных Республики Узбекистан выявлена необходимость совершенствования информационной базы бухгалтерского учета животноводческих предприятий. Предложена усовершенствованная организационно-методическая модель учета, предусматривающая разделение биологических активов по экономическому назначению, применение аналитического учета по возрасту, породе, продуктивности и направлению использования, а также формирование информационной базы для определения справедливой стоимости. Обосновано, что повышение качества учета биологических активов должно осуществляться одновременно с совершенствованием первичной документации, оценочных процедур, внутреннего контроля и раскрытия информации в финансовой отчетности.

Ключевые слова: животноводство, бухгалтерский учет, биологические активы, МСФО (IAS) 41, МСФО (IFRS) 13, справедливая стоимость, сельскохозяйственная продукция, оценка, финансовая отчетность, Узбекистан.

KIRISH

Chorvachilik qishloq xo‘jaligining biologik jarayonlar bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan, ishlab chiqarish natijasi hayvonlarning o‘sishi, rivojlanishi, ko‘payishi va mahsuldorlik darajasidagi o‘zgarishlarga bog‘liq tarmog‘idir. Shu sababli mazkur tarmoqda buxgalteriya hisobini an’anaviy xarajatlar hisobidan iborat tizim sifatida emas, balki biologik transformatsiyani muntazam kuzatib boradigan va uning moliyaviy natijalarga ta’sirini aks ettiradigan axborot tizimi sifatida tashkil etish talab qilinadi.

41-son “Qishloq xo‘jaligi” nomli BHXS (IAS 41 “Agriculture”) qishloq xo‘jaligi faoliyatidagi biologik aktivlarning o‘sishi, degeneratsiyasi, ishlab chiqarishi va ko‘payishi bilan bog‘liq hisob jarayonlarini tartibga soladi. Standartga ko‘ra, “biologik aktivlar - tirik hayvon yoki o‘simlik, qishloq xo‘jaligi faoliyati esa biologik transformatsiyani boshqarish jarayonidir” [1]. “Boshqa biologik aktivlar, odatda, sotish xarajatlari chegirilgan haqiqiy qiymatda baholanadi va qiymatdagi o‘zgarishlar tegishli davr foyda yoki zararida aks ettiriladi” [1].

Chorvachilikda mazkur talabni qo‘llash bir qator amaliy masalalarni keltirib chiqaradi. Jumladan, hayvonlarning yoshi va zoti, mahsuldorligi, vazni, fiziologik holati, nasldorlik darajasi, boqish sharoiti va bozor narxlarining o‘zgarishi biologik aktivning qiymatiga bevosita ta’sir qiladi. Faol bozor mavjud bo‘lmagan hollarda esa haqiqiy qiymatni aniqlashda baholash modellari va professional mulohazadan foydalanish zarurati ortadi.

O‘zbekiston chorvachiligida ushbu masalaning dolzarbligi ishlab chiqarish hajmining kattaligi bilan ham izohlanadi. Milliy statistika qo‘mitasi ma’lumotlariga ko‘ra, “2025-yil yakunida mamlakatda 2 987,5 ming tonna tirik vazndagi go‘sht, 12 591,2 ming tonna sut va 9 483,0 mln dona tuxum ishlab chiqarilgan” [2]. Bu ko‘rsatkichlar chorvachilikda biologik aktivlarning katta hajmdagi harakati va mahsuldorlik natijalarini hisobda to‘liq aks ettirish masalasini dolzarb qiladi.

Tadqiqotning maqsadi - chorvachilik korxonalarida biologik aktivlarni xalqaro standartlar asosida tan olish, tasniflash, baholash va hisobda aks ettirishdagi muammolarni aniqlash hamda ularni bartaraf etishga qaratilgan takliflarni ishlab chiqish.

Tadqiqot vazifalari quyidagilardan iborat:

chorvachilikda biologik aktivlarning iqtisodiy mazmunini aniqlashtirish;

IAS 41 va IFRS 13 talablarini chorvachilik hisobiga tatbiq etish xususiyatlarini tahlil qilish;

O‘zbekistonda chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarish ko‘rsatkichlarini tahlil qilish;

biologik aktivlarni tasniflash va analitik hisobini takomillashtirish yo‘nalishlarini ishlab chiqish;

haqiqiy qiymatni aniqlash va moliyaviy hisobotda ochib berish mexanizmini taklif etish.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Biologik aktivlar hisobining xalqaro nazariy asosini 41-son “Qishloq xo‘jaligi” nomli BHXS (IAS 41 “Agriculture”) tashkil etadi. Mazkur standart “biologik aktivlar va hosilni yig‘ib olish paytidagi qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini baholashning o‘ziga xos tartibini belgilaydi” [1]. Standartning asosiy yondashuvi “biologik transformatsiya natijasida yuzaga keladigan iqtisodiy qiymat o‘zgarishlarini moliyaviy hisobotda o‘z vaqtida aks ettirishga qaratilgan” [1].

13-son “Haqqoniy qiymatni baholash” nomli MHXS (IFRS 13 “Fair Value Measurement”) esa haqiqiy qiymatni baholashning umumiy metodologik asoslarini belgilaydi. Ushbu standart “haqiqiy qiymatni bozor ishtirokchilari o‘rtasidagi tartibli bitimda aktivni sotishdan olinadigan yoki majburiyatni o‘tkazish uchun to‘lanadigan chiqish narxi sifatida belgilaydi” [3]. Shu jihatdan chorvachilikdagi biologik aktivlar qiymatini aniqlashda bozor ma’lumotlari, aktivning xususiyatlari va bozor ishtirokchilarining taxminlarini hisobga olish muhimdir.

Xorijlik iqtisodchi olimlar Gonçalves, Lopes va Craig tomonidan “27 mamlakatdagi 389 ta firma-yil kuzatuvlari asosida olib borilgan tadqiqot biologik aktivlarning haqiqiy qiymatda tan olinishi moliyaviy axborotning qiymatga daxldorligi bilan bog‘liqligini ko‘rsatgan. Mualliflar ochib berish darajasi yuqori bo‘lgan korxonalarda biologik aktivlar haqidagi ma’lumotlarning qiymatga daxldorligi kuchliroq ekanini aniqlagan” [4].

Chet ellik soha mutaxassislari Bohušová va Svoboda tadqiqotlarida “qishloq xo‘jaligida haqiqiy qiymat modelini qo‘llashning metodik jihatlari hamda xalqaro standartlar bo‘yicha baholash muammolari o‘rganilgan” [5]. Tadqiqotlarda biologik aktivlar uchun bozor ma’lumotlari mavjudligi va baholashning ishonchliligi o‘rtasidagi bog‘liqlik alohida ahamiyat kasb etadi.

“2025-yilda e’lon qilingan tizimli sharhda ham biologik aktivlarni baholashda haqiqiy qiymatning afzalliklari bilan bir qatorda, bozor ma’lumotlarining cheklanganligi, baholashdagi subyektivlik va qiymatlarning o‘zgaruvchanligi asosiy amaliy muammolar sifatida ko‘rsatilgan” [6].

O‘zbekiston olimlarining tadqiqotlarida ham chorvachilikdagi biologik aktivlarni xalqaro standartlar asosida identifikatsiya qilish, boshlang‘ich hisobga olish, hujjatlashtirish va hisobvaraqlar tizimini takomillashtirish masalalari yoritilgan. Xususan, B. Menglikulov, I. Davletov va M. Yusupova tomonidan “chorvachilik biologik aktivlarini aniqlash va hisobga olishni takomillashtirish, birlamchi hujjatlar hamda hisobvaraqlar tizimini rivojlantirish bo‘yicha takliflar ishlab chiqilgan” [7].

Shunday qilib, adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, xalqaro standartlar biologik aktivlarning iqtisodiy mazmunini nisbatan aniq belgilab bergan bo‘lsa-da, ularni amaliy hisobga tatbiq etishda *bozor axborotining yetishmasligi, haqiqiy qiymatni aniqlashdagi subyektivlik, analitik hisobning yetarli darajada batafsil tashkil etilmaganligi va birlamchi hujjatlarning biologik jarayonlarni to‘liq qamrab olmasligi* kabi masalalar saqlanib qolmoqda. Mazkur holat tadqiqotning ilmiy muammosini shakllantiradi.

MATERIALLAR VA METODLAR

Tadqiqotda O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasining 2025-yil yakunlari bo‘yicha ma’lumotlari, 41-son BHXS “Qishloq xo‘jaligi” (IAS 41) hamda 13-son “Haqqoniy qiymatni baholash” nomli MHXS (IFRS 13), O‘zbekiston Respublikasining buxgalteriya hisobi bo‘yicha me’yoriy hujjatlari va ilmiy adabiyotlardan foydalanildi.

Tadqiqot metodologiyasini tizimli yondashuv, qiyosiy tahlil, guruhlash, statistik tahlil, induksiya va deduksiya usullari tashkil etdi. Xalqaro standartlar talablari O‘zbekiston chorvachilik korxonalarining hisob amaliyoti bilan qiyoslandi.

1-jadvalda O‘zbekistonda asosiy chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning 2022–2025-yillardagi dinamikasi keltirilgan.

1-jadval ma’lumotlari O‘zbekistonda 2022–2025-yillarda asosiy chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi umuman ***o‘sish tendensiyasiga ega bo‘lganini*** ko‘rsatadi. Xususan, tirik vazndagi go‘sht ishlab chiqarish 2 726,0 ming tonnadan 2 987,5 ming tonnagacha oshib, ***9,6 foizga***, sut ishlab chiqarish 11 629,4 ming tonnadan 12 591,2 ming tonnagacha ko‘payib, ***8,3 foizga*** o‘sgan. Tuxum ishlab chiqarish esa 8 129,3 mln donadan 9 483,0 mln donagacha yetib, ***16,7 foizga*** oshgan. Baliq ovlash hajmi 177,4 ming tonnadan 206,2 ming tonnagacha ko‘payib, ***16,2 foiz o‘sish*** qayd etgan.

1-jadval. O‘zbekistonda asosiy chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarish dinamikasi, 2022–2025-yillar

Ko‘rsatkich	O‘lchov birligi	2022-yil	2023-yil	2024-yil	2025-yil	2025-yilda 2022-yil nisbatan o‘zgarishi, %
Go‘sht (tirik vaznda)	ming tonna	2 726,0	2 833,3	2 942,5	2 987,5	**109,6**
Sut	ming tonna	11 629,4	11 968,7	12 443,8	12 591,2	**108,3**
Tuxum	mln dona	8 129,3	8 487,5	8 805,4	9 483,0	**116,7**
Baliq	ming tonna	177,4	198,9	191,4	206,2	**116,2**

Manba: O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasining 2022–2025-yillar bo‘yicha rasmiy statistik ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi. (https://stat.uz/images/uploads/reliz2021/selhoz-press-reliz-eng-27_01_2023.pdf, https://stat.uz/img/press-reliz-uzb_p99977.pdf?)

Ayniqsa, *2024-yilda baliq ishlab chiqarish 191,4 ming tonnagacha pasaygan,* biroq *2025-yilda 206,2 ming tonnagacha* tiklangan. Bu holat chorvachilik mahsulotlari bo‘yicha hisob va tahlilda faqat mutlaq ishlab chiqarish hajmini emas, balki yillik dinamikani ham hisobga olish zarurligini ko‘rsatadi.

Jadvaldan ko‘rinadiki, chorvachilikda biologik aktivlarning miqdoriy ko‘lami katta. 2025-yil 1-oktabr holatiga qoramollar soni 14,3 mln bosh, qo‘y va echkilar 24,8 mln bosh, parrandalar esa 110,8 mln boshni tashkil etgan [8]. Bunday hajmdagi biologik aktivlar harakati bo‘yicha faqat sintetik hisobni yuritish boshqaruv va moliyaviy hisobot ehtiyojlari uchun yetarli emas.

Natijalar. Tadqiqot natijasida chorvachilikda xalqaro standartlar asosida buxgalteriya hisobini tashkil etishning asosiy muammolari uch guruhga ajratildi: *identifikatsiya va tasniflash muammolari; baholash muammolari; axborot va nazorat muammolari.*

2-jadvalda chorvachilikda xalqaro standartlar asosida hisob yuritish muammolari va ularning taklif etilayotgan yechimlari berilgan.

2-jadval. Chorvachilikda xalqaro standartlar asosida hisob yuritish muammolari va ularning taklif etilayotgan yechimlari

Muammo	Hisobga ta'siri	Taklif etilayotgan yechim
Biologik aktivlarning iqtisodiy maqsadi bo'yicha yetarli darajada ajratilmasligi	Aktivlar tarkibi va ularning funksional vazifasi to'liq ochilmaydi	Iste'mol qilinadigan va unumdor biologik aktivlarni alohida guruhlash
Faol bozor narxlarining yetishmasligi	Haqiqiy qiymatni aniqlashda subyektivlik kuchayadi	Bozor narxlari, vazn, yosh, zot va mahsuldorlik ma'lumotlari bazasini shakllantirish
Hayvonlarning biologik o'zgarishlarini muntazam qayd etmaslik	Qiymat o'zgarishlari moliyaviy natijalarda noto'g'ri aks etishi mumkin	Oylik/choraklik biologik monitoring kartalarini joriy etish
Analitik hisobning yetarli darajada batafsil emasligi	Boshqaruv qarorlari uchun axborot yetishmaydi	Har bir guruhni yosh, zot, mahsuldorlik va foydalanish yo'nalishi bo'yicha hisobga olish
Birlamchi hujjatlarning yetarli darajada integratsiyalanmaganligi	Hayvonlar harakati bo'yicha nazorat susayadi	Elektron biologik aktivlar reyestrini joriy etish
Moliyaviy hisobotda baholash usullarining yetarlicha ochib berilmasligi	Hisobot shaffofligi va taqqoslanuvchanligi pasayadi	Baholash usuli, muhim taxminlar va haqiqiy qiymatdagi o'zgarishlarni izohlarda ochib berish

41-son BHXS (IAS 41) talablari nuqtayi nazaridan chorvachilik hayvonlarini iqtisodiy vazifasiga ko'ra ikki asosiy guruhga ajratish maqsadga muvofiq:

1. *Iste'mol qilinadigan biologik aktivlar* - go'sht olish yoki sotish uchun yetishtiriladigan hayvonlar.
2. *Unumdor biologik aktivlar* - sut, jun, nasl yoki boshqa qishloq xo'jaligi mahsulotlarini olish uchun takroriy yoki uzluksiz foydalaniladigan hayvonlar.

O'zbekistonning amaldagi hisobga oid me'yoriy bazasida ham "biologik aktivlarning foydalaniladigan va unumdor guruhlari bo'yicha ajratilishi aks ettirilgan. Jumladan, 2026-yilda kiritilgan o'zgartirishlarda foydalaniladigan biologik aktivlar hamda unumdor (nasldor) biologik aktivlar alohida tavsiflangan" [9]. Bu yondashuv xalqaro standartlar bilan milliy hisob tizimi o'rtasidagi uyg'unlikni kuchaytirish uchun muhim asos yaratadi.

1-rasmda chorvachilik biologik aktivlarini xalqaro standartlar asosida hisobga olish algoritmi keltirilgan.



1-rasm. Chorvachilik biologik aktivlarini xalqaro standartlar asosida hisobga olish algoritmi

Manba: IAS 41 va IFRS 13 talablari asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

13-son MHXS (IFRS 13) talablariga muvofiq "haqiqiy qiymatni aniqlashda aktivning bozor ishtirokchilari tomonidan baholanishi, bozor sharoitlari va tegishli risklar hisobga olinishi lozim" [3]. Shu sababli chorvachilik korxonalarida "o'rtacha bozor narxi"dan mexanik foydalanish yetarli emas. Masalan, bir xil turdagi qoramollarning

yoshi, tirik vazni, zoti va mahsuldorlik darajasi keskin farq qilishi mumkin. Demak, haqiqiy qiymatni aniqlashda aktivning muhim atributlarini hisobga oladigan analitik model zarur.

3-jadvalda chorvachilik biologik aktivlarining takomillashtirilgan analitik hisob modeli berilgan.

Mazkur modelning asosiy afzalligi shundaki, sintetik hisobdan analitik hisobga o‘tish orqali biologik aktivning nafaqat mavjudligi, balki uning iqtisodiy salohiyati va qiymatiga ta’sir etuvchi omillar ham kuzatiladi.

3-jadval. Chorvachilik biologik aktivlarining takomillashtirilgan analitik hisob modeli

Analitik daraja	Asosiy ko‘rsatkichlar	Hisobning maqsadi
1-daraja	Biologik aktiv turi	Qoramol, qo‘y-echki, parranda va boshqalarni ajratish
2-daraja	Iqtisodiy maqsadi	Iste’mol qilinadigan yoki unumdor aktiv
3-daraja	Yosh guruhi	Yosh hayvon, o‘sayotgan hayvon, voyaga yetgan hayvon
4-daraja	Zot/nasl	Zot tarkibi va genetik xususiyatlarni nazorat qilish
5-daraja	Mahsuldorlik	Sut, jun, nasl yoki boshqa mahsulot olish imkoniyatini baholash
6-daraja	Tirik vazn	Haqiqiy qiymatni aniqlash uchun asosiy fizik ko‘rsatkich
7-daraja	Bozor narxi	Baholash sanasidagi bozor axboroti
8-daraja	Qiymat o‘zgarishi	Foyda yoki zararda aks ettiriladigan o‘zgarish

Manba: muallif tomonidan taklif etilgan.

Muhokama. Tadqiqot natijalari biologik aktivlarni xalqaro standartlar asosida hisobga olishda asosiy muammo standart talablarining mavjud emasligi emas, balki ularni amaliy axborot tizimiga aylantirish masalasi ekanini ko‘rsatadi.

Birinchidan, *haqiqiy qiymatni aniqlash* masalasi dolzarbdir. 41-son BHXS (IAS 41) “biologik aktivlarni, umumiy qoida sifatida, sotish xarajatlari chegirilgan haqiqiy qiymatda baholashni nazarda tutadi” [1]. Biroq chorvachilikda bir xil biologik aktivning qiymati yosh, tirik vazn, zot, mahsuldorlik va fiziologik holatga qarab farq qiladi. Shu sababli korxona hisob siyosatida baholash sanasi, narx manbasi, aktivning asosiy atributlari va baholash usulini aniq belgilash maqsadga muvofiq.

Ikkinchidan, *bozor axborotining sifati* muhim ahamiyatga ega. 13-son MHXS (IFRS 13) “haqiqiy qiymatni aniqlashda bozor ishtirokchilari foydalanadigan taxminlarni hisobga olishni talab qiladi” [3]. Faol bozor mavjud bo‘lmagan vaziyatlarda esa baholash jarayonining shaffofligi uchun qo‘llanilgan ma’lumotlar va taxminlarni hujjatlashtirish talab etiladi.

Uchinchidan, *biologik transformatsiyaning hisobda aks ettirilishi* takomillashtirilishi lozim. Hayvonning tug‘ilishi, o‘sishi, vaznining ortishi, mahsuldorlikning o‘zgarishi, nasl olish va nobud bo‘lish kabi jarayonlar birlamchi hujjatlarda uzluksiz qayd etilishi kerak. Bu ma’lumotlar keyinchalik biologik aktivning qiymatini qayta baholash uchun asos bo‘ladi.

To‘rtinchidan, *hisob va boshqaruv axborotining integratsiyasi* zarur. Chorvachilik korxonalarida yem-xashak, veterinariya, mehnat, energiya va boshqa xarajatlar haqidagi ma’lumotlar biologik aktivning holati bilan bog‘lanmasa, alohida xarajatlar hisobining o‘zi boshqaruv qarorlarini to‘liq qo‘llab-quvvatlamaydi.

Shu asosda maqolada biologik aktivlar hisobini *“resurslar → biologik transformatsiya → baholash → mahsulot → moliyaviy natija → hisobot”* zanjiri asosida tashkil etish taklif qilinadi.

2-rasmda chorvachilikda biologik aktivlar hisobining integratsiyalashgan axborot modeli taklif etilgan.

Yem-xashak va boshqa resurslar
↓
Hayvonlarni identifikatsiya qilish va guruhlash
↓
O‘sish – ko‘payish – mahsuldorlik – vazn o‘zgarishi
↓
Biologik aktivlar analitik reyestri
↓
Bozor ma’lumotlari + baholash ko‘rsatkichlari
↓
Haqiqiy qiymatni aniqlash
↓
Buxgalteriya yozuvlari
↓

Foyda yoki zarar tarkibida qiymat o‘zgarishi
↓
Moliyaviy hisobot va izohlar
↓
Ichki nazorat va boshqaruv qarorlari

2-rasm. Chorvachilikda biologik aktivlar hisobining integratsiyalashgan axborot modeli
Manba: muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

Mazkur modelda boshlang‘ich hisob hujjatlari va analitik registrlar asosiy axborot manbai sifatida qaraladi. Elektron reyestrdan foydalanish orqali har bir hayvon yoki hayvonlar guruhi bo‘yicha identifikatsiya raqami, turi, zoti, yoshi, vazni, mahsuldorligi, kirim-chiqimi, nobud bo‘lishi va baholash natijalarini yagona axborot bazasida jamlash mumkin.

Bunda ilmiy-amaliy jihatdan muhim taklif - *“biologik aktivning hisob qiymati”ni faqat xarajatlar yig‘indisi sifatida emas, balki biologik transformatsiya natijasida shakllanadigan iqtisodiy qiymat bilan bog‘langan ko‘rsatkich sifatida shakllantirish*dir. Bunday yondashuv 41-son BHXS (IAS 41) ning iqtisodiy mazmuniga yaqinlashadi va moliyaviy hisobotning axborot imkoniyatlarini kengaytiradi.

XULOSA

Tadqiqot natijasida chorvachilikda buxgalteriya hisobini xalqaro standartlar asosida tashkil etishning asosiy muammolari biologik aktivlarni identifikatsiya qilish, ularni iqtisodiy maqsadiga ko‘ra tasniflash, haqiqiy qiymatini aniqlash, biologik transformatsiyani muntazam qayd etish va moliyaviy hisobotda tegishli axborotni ochib berish bilan bog‘liqligi aniqlandi.

41-son BHXS (IAS 41) biologik aktivlar hisobining asosiy metodologik asosini tashkil etib, biologik transformatsiya natijasidagi qiymat o‘zgarishlarini moliyaviy hisobotda aks ettirishga imkon beradi. 13-son MHXS (IFRS 13) esa haqiqiy qiymatni aniqlashning yagona konseptual asosini shakllantiradi. Shu sababli ushbu ikki standartni chorvachilik hisobida o‘zaro bog‘liq holda qo‘llash maqsadga muvofiq.

Maqolada chorvachilik biologik aktivlarini *iste’mol qilinadigan va unumdor aktivlarga ajratish*, ularning analitik hisobini *tur, yosh, zot, mahsuldorlik, tirik vazn va foydalanish yo‘nalishi* bo‘yicha tashkil etish taklif etildi. Shuningdek, haqiqiy qiymatni aniqlash uchun bozor narxlari bilan bir qatorda biologik aktivning muhim fizik-biologik xususiyatlarini hisobga oluvchi axborot bazasini shakllantirish taklif qilindi.

Umuman olganda, xalqaro standartlarga mos hisob tizimi faqat hisobvaraqlarni qayta guruhlash bilan cheklanmasligi, balki *boshlang‘ich hisob hujjatlari – analitik hisob – baholash – ichki nazorat – moliyaviy hisobot – boshqaruv qarorlari* o‘rtasidagi uzviy axborot aloqasini ta’minlashi lozim. Shu jihatdan taklif etilgan model chorvachilik korxonalarida biologik aktivlar haqidagi moliyaviy axborotning ishonchliligi, shaffofligi va taqqoslanuvchanligini oshirishga xizmat qilishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. IFRS Foundation. IAS 41 Agriculture. International Financial Reporting Standards Foundation. London.
2. O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi. Agriculture, forestry and fisheries in the Republic of Uzbekistan. Production of main types of livestock products and fish catch in January–December 2025. 23 January 2026.
3. IFRS Foundation. IFRS 13 Fair Value Measurement. International Financial Reporting Standards Foundation. London.
4. Gonçalves R., Lopes P., Craig R. Value relevance of biological assets under IFRS // Journal of International Accounting, Auditing and Taxation. 2017. Vol. 29. P. 118–126. DOI: 10.1016/j.intaccaudtax.2017.10.001.
5. Bohušová H., Svoboda P. Measurement of Agricultural Activities According to the International Financial Reporting Standards // Procedia Economics and Finance. 2015. Vol. 32. P. 777–783. DOI: 10.1016/S2212-5671(15)01461-6.
6. Biological Assets in Agricultural Accounting: A Systematic Review of the Application of IAS 41. Journal of Risk and Financial Management. 2025. Vol. 18, No. 7, Article 380. DOI: 10.3390/jrfm18070380.
7. Menglikulov B.Yu., Davletov I.R., Yusupova M.B. Improvement of Organizational and Methodological Aspects of Identification and Accounting of Biological Assets in Livestock Based on International Standards // Development of International Entrepreneurship Based on Corporate Accounting and Reporting According to IFRS. Emerald Publishing, 2024. DOI: 10.1108/S1877-636120240000033A004.
8. O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi. Livestock and poultry population. 1 October 2025. https://stat.uz/images/uploads/reliz2021/selhoz-press-reliz-eng-27_01_2023.pdf, https://stat.uz/img/press-reliz-uzb_p99977.pdf?
9. O‘zbekiston Respublikasi buxgalteriya hisobi milliy standarti (21-sonli BHMS). “Xo‘jalik yurituvchi subyektlarda buxgalteriya hisobi hisobvaraqlar rejasi va uni qo‘llash bo‘yicha yo‘riqnoma”. 27.12.2024, ro‘yxat raqami 3593; 2026-yilgi tegishli o‘zgartirishlar bilan.



IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o‘g‘li

2026. VI maxsus son

© Materiallar ko‘chirib bosilganda ““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali manba sifatida ko‘rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma’sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga
maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.
El.Pochta: sq143235@gmail.com
Bot: @iqtisodiyot_77
Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo‘lishingiz mumkin. Obuna bo‘lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to‘lov haqidagi ma’lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo‘natishingizni so‘raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo‘natamiz.

““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali 03.11.2022-yildan
O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№566955 reyestr raqami tartibi bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tkazilgan.
Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug‘bek tumani
Kumushkon ko‘chasi, 26-uy.

Jurnal sayti: https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz










SAMARQAND DAVLAT VETERINARIYA MEDITSINASI, CHORVACHILIK VA BIOTEXNOLOGIYALAR UNIVERSITETI
"INNOVATSION IQTISODIYOT SHAROITIDA QISHLOQ XO'JALIGINI BARQAROR RIVOJLANTIRISH TENDENSIYALARI" MAVZUSIDAGI RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI
2026-yil 25-26-sentabr



